

## TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY TADBIRLARNI UYUSHTIRISH ORQALI - TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

*Komilova Fotima Maxmudovna,*

*Andijon davlat universiteti, Umumiy pedagogika kafedrasi dotsenti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng ko'lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatni o'zida mujassamlashtira olgan shaxsning ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari va ularda tashkilotchilik sifatlarining rivojlantira olish, har tomonlama shaxsiy namuna bo'la olish kabi xususiyatlarni o'zida singdirishi lozimligi haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, intellektual salohiyat, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, maqsadga intiluvchanlik, shaxsiy qobiliyatlar, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, shaxsiy sifatlar, shaxslararo munosabatlar.*

*Аннотация. В данной статье в общественной жизни человека, который смог воплотить великую возможность организации масштабной общественной деятельности путем организации духовно-просветительских мероприятий в учебных заведениях, в том числе духовно-просветительских мероприятий, организованных на различные темы, говорится, что они должны активно участвовать и иметь возможность развивать организаторские качества и быть личным примером для подражания во всех аспектах.*

*Ключевые слова: общественная активность, интеллектуальный потенциал, инициатива, предприимчивость, целеустремленность, личностные способности, духовно-просветительские, воспитание и воспитание, личностные качества, межличностные отношения.*

*Annotation. In this article, in the social life of a person who was able to realize the great opportunity to organize large-scale social activities by organizing spiritual and educational events in educational institutions, including spiritual and educational events organized on various topics, it is said that they should actively participate and have the opportunity develop organizational skills and be a personal role model in all aspects.*

*Keywords: social activity, intellectual potential, initiative, enterprise, determination, personal abilities, spiritual and educational, education and training, personal qualities, interpersonal relationships.*

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim jabhasi sifatida barkamol shaxs tarbiyasi masalalari o'rta qo'yildi, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Unda O'zbekiston Respublikasi davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, Davlat dasturlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy va huquqiy xujjatlar ta'limdagi islohotlarning mazmuni va dolzarb vazifalarini belgilab berdi. [1,2,3].

Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan fuqarolarning intellektual salohiyati, shijoati, yosh avlodning kamoloti hamda ularning ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaliklari bilan bog'liq. O'sib kelayotgan avlodning jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi, xalq manfaatini shaxsiy manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga erishishi, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi tashabbuskorligi, yuqori darajada faollik ko'rsata olishlari turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirishda, shaxsiy qobiliyatlarini to'laqonli namoyon etish, o'zlari mansub bo'lgan jamoalarning imkoniyatlarini muayyan maqsad atrofida birlashtirish borasidagi layoqatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, keng ko'lamli ijtimoiy harakat ko'zlangan maqsad, faoliyat yo'nalishlari, keng aholi qatlamini qamrab olish ko'lami nuqtai nazaridan umumiylik, jamoaviylik xususiyatiga egadir. Bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida ijtimoiy faol, jamiyat xayotining turli sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'la namoyon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Chunki ta'lim muassasalari turli yoshdagi shaxslarni yagona jamoaga birlashtira olgan maskan sanaladi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng ko'lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatni o'zida mujassamlashtira olgan. Ularning ta'lim muassasalari ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari ularda tashkilotchilik sifatlarining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxs ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi faoliyatga bevosita jalb etilib, o'zining jamiyatdagi o'rni qanday ekanligini tushunish, o'z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifalarni to'liq anglash, shuningdek, boshqa sub'yektlar bilan faol munosabatga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lsagina ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradi. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligini belgilovchi ko'rsatkich – uning ijtimoiy munosabatlar jarayoniga to'liq kirishishi, ijtimoiy faolligi va shaxs faoliyatining muayyan maqsadga yo'nalganligi sanaladi.

Ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki, ijtimoiy munosabatlar rivojiga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga ularda intizomlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, maqsadga intiluvchanlik kabi sifatlarni tarbiyalash kelgusida komil inson va malakali, yetuk mutaxassis bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlaydi. Zero, kelgusida jamiyatning to'laqonli a'zosi va malakali mutaxassis sifatida ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida faol ishtirok etish, zimmadagi ijtimoiy burchlarni sidqidildan ado etishda shaxsning tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda tashkilotchilik sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda shaxsning kreativligini rivojlantirish bilan birgalikda ularning dunyoqarashlarini kengaytirish xamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qay darajada ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularda tashkilotchilik sifatlarni shakllantirish ham shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, talabalarda tashkilotchilik sifatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda muloqotga tez kirishuvchan bo'lishlariga erishish ularning kelajakda demokratik jamiyatning faol a'zolari bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi..

Tashkilotchilik layoqatiga egalik shaxsning jamoa faoliyatini uyushtirish, ijtimoiy, shu jumladan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, tadbirlarni metodik jihatdan maqsadga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash hamda tadbirlar jarayonida har bir ishtirokchi tomonidan muayyan vazifalarning bajarilishiga rahbarlik qilish ehtiyojining mavjudligini ifodalaydi. Jamoa faoliyatini uyushtirishda tashkilotchi shaxs o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish, mas'uliyatni chuqur his etish, dadil harakatlanish, berilgan so'z (va'da)da qat'iy turish, har bir a'zoga nisbatan talabchan bo'lish, jarayon natijasi uchun javobgarlik hissini tuyish kabi sifatlarni o'zida namoyon eta olishi lozim.

Tashkilotchilik sifatlari o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etish taqozo etiladi. Pedagogik faoliyatni tashkil qilish jarayonida esa muayyan shartlarga amal qilingandagina ko'zlangan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos ko'rinishlaridagi asosiy belgilar temperamentda (javob ta'sirining muayyan vaqt va tezlikda namoyon bo'lishi, o'qituvchining o'ziga xos ish uslubi va xissiy barqarorlik); u yoki bu pedagogik vaziyatlarga munosabat xarakterida; metod tanlashda; tarbiya vositalarini ajrata olishida; pedagogik muammo, vaziyatni hal etilishi tizimida; o'quvchilar faoliyati va xatti-harakatlariga e'tibor berishda; xulqiy ko'rinishlarda; rag'batlantirish va jazolash usullarini qo'llashda; ob'yektga psixologik-pedagogik vositalarni yo'naltira olishida namoyon bo'ladi. Pedagog – ta'lim oluvchilar bilan ishlovchi, ularning dars va darsdan tashqaridagi faoliyatlarini va munosabatlarini boshqaruvchi sub'yekt hamdir. Shuning uchun har bir pedagog o'zida umumiy va o'ziga xos tashkilotchilik sifatlarni rivojlantirib bormog'i lozim.

Tashkilotchilikning umumiy sifatlari deganda, aqlning amaliy va chuqur mulohaza yurita olishi, faollik va tashabbuskorlik, qo'yilgan maqsadga erishishda tirishqoqlik, murakkab vaziyatlarda o'zini qo'lga ola bilish, uyushtira olish, kuzatuvchanlik, muomalaga kirishuvchanlik kabilar tushuniladi.

Tashkilotchilikning o'ziga xos sifatlari: ichki sezgirlik, xushyorlik, xissiy irodaviy ta'sir eta olish, tashkilotchilik faoliyatiga moyillikni o'z ichiga oladi. Pedagogik kasb va unga qo'yiladigan talablar o'zgarishsiz qoladi, deb bo'lmaydi balki, inson turli-tuman faoliyatlar ta'sirida shakllanib boradi. U ma'lum sifat va harakatlarni shunchaki tashuvchi, yetkazuvchi sub'yekt sifatidagina faoliyat ko'rsatib qolmasdan, balki, yaxlit shaxs sifatida intilishi, ma'naviy boyliklari, xissiyoti va ko'rsatmalari, yo'nalishlari bilan o'ziga xos tarzda faoliyat yurituvchi inson hamdir.

Shuning uchun ham har bir shaxs o'zini anglab yetishi, o'ziga xos xususiyatlarini, intilishlari, imkoniyatlari, kamchiliklari va uning sabablari, kasbiy faoliyatning o'ziga xos tomonlari va muvaffaqiyatga erishish shartlarini, o'zining ustun tomonlarini, mazkur faoliyatning samarali kechishini ta'minlovchi imkoniyatlar va turli yo'nalishlarda ko'zda tutilgan vazifalarni yaxshi bilishi kerak.

Har qanday kasbiy faoliyatni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uning ma'naviyatidir. Kasbiy ma'naviyat nafaqat shaxsiy sifat tarzida, balki, kasbiy tavsiflashda ham muhim ko'rsatkich sifatida alohida baholanadi. Pedagogning ma'naviy dunyosi shunday shaxsiy sifatki, u insonni yuksak kasbiy mutaxassis egasi ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchining ma'naviy yetukligi uning kasbiy faoliyatining asosiy mezonidir. Shuning uchun xam ta'lim muassasalarining mazmuni shaxs ma'naviy rivojlanishi asosida belgilanishi kerak. Talabalarining hayotini, umuminsoniy ma'naviyat asosida faoliyatlarini yo'lga qo'yish orqali, o'qituvchi ularda dunyo madaniyatini egallab borib ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratadi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda ta'limning yangi, texnologik jihatlarini ochilib borayotgan bir paytda juda muhimdir. Dunyo bilan o'zaro bog'liqlikni tashkil etish uchun, uning bor go'zalligi bilan yaxlit ko'rsata olish, insonni hayotiy qiziqishlari orqali tasvirlab berishga alohida ahamiyat berish zarur. Lekin dunyo o'zgarib boryapti. U doimiy harakatda, bu esa shaxsni atrof-muhitni baholashda, munosabat bildirishda,

idealini aniqlab olishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Demak, shaxsni dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tushunishiga, tezkor, oqilona, mustaqil, ijodiy munosabatlarni bildirishiga tayyorlash o'z-o'zini va boshqalar faoliyatini boshqarishni bilishi va yo'lga qo'yishi muhimdir. Yangi avlod va uning rivojlanishi, ma'naviy ijtimoiy hayotga moslashuvi, o'zini va boshqalarning faoliyatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelishi va uning yechimini topishga doim tayyor turish bugungi kun o'qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yangi avlod uchun dunyoni his etish, ko'rish va anglab yetishning yangi sharoitlarini izlab topish va yo'lga qo'yish, dunyoni yangitdan ko'ra bilishi, tahlil etishi, baholay olishi zarur. Bu borada o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi, uning kasbiy layoqatida o'z aksini topadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayoni uzviylik, tizimlilik asosida olib borilishi hamda pedagogik shart-sharoitlar to'raligicha hisobga olinishi lozim. Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida innovatsion yondashuvlar, o'qitishning faol zamonaviy usullaridan keng foydalanish shaxsning faolligi yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, turli kechalar, bellashuvlar o'tkazish kutilgan natijani beradi.

#### Adabiyotlar

«O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.- Toshkent: 2020 y., 23 sentyabr/<https://lex.uz/docs>.

“Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish / O'qituvchilar uchun qo'll. – Chimkent: Janubiy Qozog'iston BMMOQTI, 1993. –90 b.

Анисимов О.С., Деркач А.Д. Основы общей и управленческой акмеологии. – М.: РАН, 1995. –308 с.

Zaripov K. Ta'lim muassasasida shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishda rahbar shaxsi va uslubining o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. -№ 5. – B. 42-48.

Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. –Toshkent: 2014-yil.

Mavlonova R.A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010-yil.

Munavvarov A.Q. Pedagogika. –T.: ŷqituvchi, 1994. –174 b.

M.X. T'yxtax'jayeve Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. / Umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. –378 b.